

---

## BAYRAMLIK HADYALARI ULASHILDI

Ayni kunlarda Qo'shtepa tumanida aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, ehtiyojmand qatlami, bemorlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni moddiy-qo'llab quvvatlash, ulardan hol so'rash maqsadida xayriya tadbirlari amalga oshirilmoqda.



~~Kuni kecha tumanimizdagi maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari tomonidan, huddi shunday xayriya tadbiri o'tkazildi. Qo'shtepa tumani maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri I.Maxmudova rahbarligidagi tadbir ishtirokchilari tumanimizdagi 33 ta kam ta'minlangan oilalarda bo'lib, ularning xolidan xabar olishdi.~~



Yangi yil arafasida ushbu oilalardagi bolajonlarga qorbobo va qorqiz tomonidan qiziqarli badiiy kitoblar, o'yinchoqlar, shirinliklar hamda 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Ushbu oilalardagi bolajonlar bayram arafasida davlatimiz rahbarining g'amxo'rliklarini yana bir bor xis qildilar.



Albatta ushbu yo'qlovni amalga oshirishda tumanimizdagi va ushbu tizimda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning ham xissasi katta bo'ldi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**